

9-sinf O'zbekiston tarixi

2-dars: O'rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga O'rta Osiyo davlatlarining hududi, Xiva va Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining hududiy chegaralari, O'rta Osiyo davlatlarining aholisi (Aholisi asosan, o'zbeklar bo'lib, shu bilan birga tojiklar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar ham bo'lgan) haqida umumiy ma'lumot va tushunchalar berish;

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'rta Osiyodagi uch davlat haqida o'z munosabatlarini bildira oladilar va o'zaro kelisha olish munosabatlarini shakllantiradi;

Ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda uch davlat - Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarining hududi, aholisi qay tarzda ekanligini farqlay olish ko'nikmasini rivojlantiradi;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish;

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Aqliy hujum"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Xiva va Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, chegaralar, 3 million, 2 million, 800 ming, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar.

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Guruhlarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:

- **savol:** Vatan tushunchasiga ta'rif bering.
- **savol:** 9-sinf «O'zbekiston tarixi» darsligi qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
- **savol:** 8-sinf «O'zbekiston tarixi» darsligi qaysi mavzu bilan yakun topgan edi?

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1. **O'rta Osiyo davlatlarining hududi;**
2. **O'rta Osiyo davlatlarining aholisi.**

XIX asrda O'rta Osiyoda uchta mustaqil davlat mavjud bo'lib, bular Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridir. Bu davlatlarda ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq va boshqa sohalar rivojlangan bo'lsa-da, biroq ularning taraqqiyoti ilg'or Yevropa davlatlari darajasidan past edi. Amirlik poytaxti islom dini markazlaridan biri bo'lib, «Buxoro Sharif», ya'ni «Muqaddas Buxoro» nomiga ega bo'lgan. Amirlik chegaralari janubda Amudaryoning chap qirg'og'idan boshlanib Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi yerlarigacha cho'zilgan. Davlat hududi XIX asrning o'rtalarida Eron, Afg'oniston, Qo'qon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi hisoblangan. Amirlikda Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Ko'lob kabi yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy markazlar hisoblangan shaharlar ham mavjud edi. Unga hozirgi Tojikistondagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysidagi yerlar, Turkmanistondagi Murg'ob daryosi vohalaridagi joylar qarashli bo'lgan. Shu bilan birga hududiy jihatdan beklilik va tumanlarga bo'linib, ularni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan. Amirlikda 27 ta beklilik bo'lgan.

Xiva xonligi XIX asrning ikkinchi yarmida xonlik yerlari janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning ma'muriy markazi Xiva shahri hisoblangan. Xonlikda Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iroq, Xo'jayli kabi bekliliklarning markazlari bor edi. Xiva xonligi 18 ta beklilik, 2 ta noiblikka bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va to'ralar boshqargan.

XVIII asrning boshlarida, asosan, Farg'ona vodiysi va Sirdaryoning quyi qismigacha bo'lgan hududlar Buxoro amirligidan ajrab, mustaqil davlat — Qo'qon xonligi tashkil topadi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Xonlikda Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, Namangan, O'zgan, O'sh, Pishpak, Turkiston, Chimkent kabi ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazga aylangan shaharlar bo'lgan.



Xonlikning hududi Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy bo'lgan. Xonlik 15 ta beklikka bo'linib, ularni, asosan, xon tomonidan o'z qarindoshlari va yaqinlaridan tayinlangan kishilar boshqargan.

O'rta Osiyo davlatlarining aholisi

XIX asrning o'rtalariga kelib Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari aholisining etnik tarkibi bir-biriga yaqin bo'lib, ularda, asosan, o'zbeklar yashagan.

Shu bilan birga uchala xonlik hududlarida tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirg'izlar ham istiqomat qilgan. Jumladan, bu davrda Buxoro amirligining aholisi soni 2 million atrofida bo'lib, aholining etnik tarkibi, asosan, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlardan tashkil topgan. Aholining asosiy qismi sersuv vohalarda yashagan. Amirlikda mang'it, saroy, qo'ng'iroq, kenagas, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq kabi o'zbek urug'lari ko'pchilikni tashkil qilgan.

Xiva xonligida aholi soni 800 ming kishidan ortiq bo'lgan. Xonlik aholisining etnik tarkibi, asosan, o'zbeklardan, bundan tashqari turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqalardan tashkil topgan.

Qo'qon xonligida aholi soni 3 millionga yaqin bo'lib, asosan, o'zbeklardan iborat bo'lgan. Shu bilan birga u yerda qirg'izlar, tojiklar, qozoqlar, uyg'urlar, yahudiylar, hindlar va boshqa elat vakillari ham yashagan.


Bu davrda uchala davlatda ham aholining asosiy qismini tashkil qilgan o'zbeklar o'troq turmush tarzida hayot kechirib, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar va qirg'izlar esa ko'chmanchi turmush kechirib, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarini o'quvchilarga (guruhlariga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: Guruhlarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:



1. Buxoro amirligi hududini tasvirlab beradi va aholisi haqida ma'lumot beradi.

2. Xiva xonligi hududi va aholisi haqida ma'lumot beradi.

3. Qo'qon xonligi hududi va aholisi haqida ma'lumot beradi.



2-topshiriq: 6-betdagi xaritadan foydalanib quyidagi jadvalni to'ldiring. Xonliklarga tegishli hududlarni ajratib yozing.

Buxoro amirligi	Xiva xonligi	Qo'qon xonligi

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



Yakunlarni chiqaramiz!

- ▶ Ularning hududi bugungi kundagi O'zbekistondan tashqari Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston yerlarining bir qismini ham o'z ichiga olgan.
- ▶ Buxoro amirligi: 27 ta bekklik - 2 mln. aholi.
- Xiva xonligi: 18 ta bekklik, 2 ta noiblik — 800 ming aholi. Qo'qon xonligi: 15 ta bekklik - 3 mln. aholi.



1. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
2. Baholarni e'lon qilish.
3. O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



- Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.
- Anagramma tuzib kelish.
- Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

QO'SHIMCHA MA'LUMOT

XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming km.kv ni tashkil qilgan bo'lib, aholisi 2 mln dan ortiq bo'lgan. Shundan 300 ming atrofidagi aholi Zarafshon vodiysida, 500 mingga yaqini Qashqadaryo vohasida, 200 mingi Surxondaryo vohasida, 500 mingga yaqini esa Sharqiy Buxoro taraflarda yashagan. Sharqiy Buxoroda asosan, o'zbeklar va tojiklar yashar edi.

Rossiya imperiyasi istilosiga qadar Xiva xonligining umumiy maydoni 130 ming 598 km.kv ni tashkil qilgan. Uning 74,2 foizi cho'l, 2,8 foizi sug'orilib ekiladigan yerlardan iborat bo'lgan. Xonlik yerlari Qizilqum, Qoraqum va kimsasiz Ustyurt cho'llari bilan qurshab olingan. Mamlakatda eng ko'p nufuzli aholi o'zbeklar (64,7 %) edi. O'zbeklar asosan, qadimdan o'troq turmush kechirib kelgan. Xonlikda turkmanlar (28 %), qoraqalpoqlar (3,8 %), qozoqlar (3,4 %), qisman forsiy tilli aholi vakillari, arablar ham xorazmlilar bilan yonma-yon yashab kelganlar.

Qo'qon xonligida jami uch million atrofida aholi yashagan. Ularning milliy tarkibi asosan, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklardan iborat bo'lib, o'zbeklar va tojiklar ko'proq dehqonchilik bilan, qirg'iz va qozoqlar esa chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Andijon, Qo'qon, Toshkent kabi shaharlarda aholi zich yashar, Qo'qon shahri xonlikning siyosiy-iqtisodiy markazi bo'lgan.



Muallif haqida



Nurg'oziyev Shuhrat Xasanovich

1. 2006 yil tarix fani o'qituvchilari uchun «**Tarix darslarida qiziqarli o'yinli usullardan foydalanish**» mavzusidagi uslubiy qo'llanma muallifi;
2. “**Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi-2016**” ko'rik-tanlovining davlat va huquq asoslari fanidan Jizzax viloyat bosqichida I o'rin sohibi, Respublika bosqichi laureati;
3. “**Xalq ta'limi tizimidagi eng yaxshi veb-saytlar**” 2013-2014-2015 ko'rik-tanlovi Respublika bosqichida IV o'rin sohibi;
4. “Xalq ta'limi tizimidagi eng yaxshi veb-saytlar-2017” ko'rik-tanlovida “Eng yaxshi o'qituvchi veb-sayti” yo'nalishi bo'yicha **Respublika** bosqichida faxrli **1-o'rin sohibi**;
5. Tarix fani bo'yicha dars ishlanma “Yilning eng yaxshi dars ishlanmasi-2017” ko'rik-tanlovining **Respublika** bosqichida faxrli **1-o'rin sohibi**;
6. 2017-yil 10 avgustda “**O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi**” nishoni bilan mukofotlangan.
7. Saytlar: www.tarixchi.zn.uz , www.shuhratbek.uz





Telefon: (+99894)-918-02-27



Sayt: Shuhratbek.uz



Muallifi: *Shuhrat Nurg'oziyev Xasanovich*